O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2025 yil "19" may
361-son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining**
**9-sonli BAYONI**

Toshkent shahar «30» aprel 2025 yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov** Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b

**Qatnashdilar:** Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) Urganch, Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining xisoboti.

Ma’ruzachilar – Urganch filiali direktori Ruzibaev Rashid Yusupovich, Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdukarimovich, Chirchiq filiali direktori Sultanov Gofur Nigmatovich.

2. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma’ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

3. Dissertasiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul ma’qullandi.

**Q A R O R  Q I L A D I :**

1.Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) Urganch, Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining xisoboti” mavzusi yuzasidan Urganch filiali direktori Ruzibayev Rashid Yusupovich, Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdukarimovich va Chirchiq filiali direktori Sultanov Gofur Nigmatovichlarning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruzalar matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyaning Urganch, Termiz va Chirchiq fıliallarining to‘1iq transformatsiyasini amalga oshirish jarayonida moddiy-texnik bazalarini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan ta’mirlash-qurilish ishlarini olib borish, kerakli o‘quv-texnik vositalarini (kompyuter, interaktiv doska va boshqa simulyatsion ta’1imga oid asbob uskunalari) harid qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibaev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.2. Akademiya filiallarida sifatli ta’lim tizimini kuchaytirish va yaratish hamda transformatsiya qilish maqsadida xorijiy nufuzli “Oliy ta’lim muassasalar” tajribasi o‘rganilishi, solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari malakaviy kompetensiyaga mosligi, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borilishi bo‘yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tadbiq etilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.3**.** Talabalarga berilayotgan dars jarayonlarini sifatli tashkil qilish, ta’lim oluvchilarni kasbga nisbatan qiziqishini orttirish, kelajakda kasbiy kompetensiyalarni to‘liq o‘zlashtirishlari uchun Akademiyaning salohiyatli professor-o‘qituvchilar ishtirokida masofadan ma’ruza mashg‘ulotlari tashkil etilsin.

**Mas’ul: Akademiyaning O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibaev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.4. Akademiya filiallari professor-o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Akademiya kafedralarida mutaxassisliklar kesimida maqsadli o‘qitish va malaka oshirish bo‘yicha ishlar kuchaytirilishi ta’minlansin.

**Mas’ul:Akademiyaning O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibaev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.**

**Muddat: 2025-yil may-iyun.**

1.5. Akademiyaning Urganch, Termiz va Chirchiq fıliallarining rivojlanish

strategiyasinining amalga oshirish jarayonida xorijning nufuzli oliy tibbiy ta’1im muassasalari va markazlari bilan hamkorlik aloqalari ishlab chiqilgan integratsiya dasturlari asosida olib borilishi ta’kidlab o‘tilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025-o‘quv yili davomida.**

1.6. Filiallar professor-o‘qituvchilarining o‘quv va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlar muassasalari yetakchi olimlari shartnoma asosida o‘quv jarayoniga jalb etilishi ta'minlansin, shuningdek, fillial o‘qituvchilari xorijda o‘z malakalarini oshirishlari bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.7. Akademiya filiallarida ilmiy-tadqiqot ishlar sifatini oshirish maqsadida zamonaviy, yangi asbob va uskunalar, kerakli reaktivlar bilan jihozlangan laboratoriyalar, vivariy va boshqa klinik - eksperimental bo‘limlar ochilishi bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.8. Akademiya filiallarining kutubxonalaridagi o‘quv va elektron adabiyotlarni ko‘paytirish, elektron manbalardan foydalanish, raqamli ta’lim texnologiyalarni rivojlantirilish, shuningdek Akademiyaning elektron kutubxonalaridan foydalanish jarayonlari bo‘yicha ishlar kuchaytirilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: 2024-2025 o‘quv yili davomida.**

1.9. Akademiya filiallarining pedagoglaridan xorijiy tajribaga asoslangan holda ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni hamda dars jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng qo‘llanishi talab etilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: Doimiy.**

1.10. Akademiya filiallari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida pedagoglarni shahsiy rejalari bajarilishi natijalari bo‘yicha rag‘batlantirish yoki chora ko‘rish ishlari yo‘lga qo‘yilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: doimiy.**

1.11. Akademiya filiallarining har bir fakultet va ilmiy kengashlarida barcha kafedralar va professor – o‘qituvchilar kesimida ilmiy salohiyatlari, jumladan ilmiy va o‘quv mahsulotlari monitoringi muhokama qilinishi va nazoratga olinishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori**

**F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: doimiy.**

1.12. Termiz hamda Chirchiq filiallari ilmiy salohiyatini yaxshilash, ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil qilish maqsadida kafedralarda faoliyat yuritayotgan ilmiy darajasiz xodimlar ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilsin, bunda Akademiyada faoliyat yuritayotgan tegishli sohaning yetakchi professor-o‘qituvchilariga “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha biriktirilsin.

**Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat:Doimiy.**

1.13. Akademiya filiallarida tahsil olayotgan doktorantlar, magistr va klinik ordinator - talabalar uchun barcha shart-sharoitlar tubdan yangilanishi amalga oshirilsin, shuningdek, barcha professor – o‘qituvchilarning ilmiy mavzulari tasdiqlanishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: doimiy.**

1.14. Filiallarning professor-o‘qituvchilari tomonidan Respublika ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etishi va ilmiy loyihalar (grant) ga ega bo‘lishi hamda xo‘jalik shartnomalar asosida ishlar olib borilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibaev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat:Doimiy.**

1.15. Akademiya filiallarida iqtidorli talabalarni saralash mezonlari bo‘yicha aniqlash, tarbiyalash va ular bilan maqsadli (nomdor stipendiyalarga tayyorlash, magistratura, ordinatura, doktoranturaga jalb etish) ishlash bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov,Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.**

**Muddat: Doimiy.**

2. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.29 – Gematologiya va transfuziologiya ixtisosligi bo‘yicha gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti Z.A.Sayfutdinova, 14.00.37 – Anesteziologiya va reanimatologiya ixtisosligi bo‘yicha Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi dotsenti N.T.Bektemirova, 01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi ixtisosligi bo‘yicha biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi dotsenti D.B.Elmurotova va 14.00.14–Onkologiya ixtisosligi bo‘yicha Onkologiya kafedrasi dotsenti U.M.Kurbankulovlar nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o‘tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

3.Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

4. Turli masalalar bo‘yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, magistratura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.I.Turakulov, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i A.K. Musaxonov chiqdilar.

4.1. Ko‘p yillar davomida Toshkent davlat tibbiyot institutida samarali mehnat qilgan hozirda marhum ustoz, travmatologiya, ortopediya, XDJ va neyroxirurgiya kafedrasi mudiri, professor Xamraev Shaxob Shamsievich nomidagi stipendiya ta’sis etilsin.

4.2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 18-apreldagi 03-03/1600-sonli xatiga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 696-son va 2017-yil 22-maydagi 304-son (55-bandi) qarorlarida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash maqsadida kuyidagi muhim masala muhokamaga olib chiqildi. Xususan, daraja.ilmiy.uz platformasida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmagan mustaqil izlanuvchi va doktorantlar yuzasidan Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ro‘yxatlar asosida Akademiya tomonidan ichki monitoring amalga oshirildi. Monitoring natijalariga ko‘ra, jami 172 nafar mustaqil izlanuvchi va doktorantlar tomonidan 2025-yil 30-aprel holatiga qadar hisobotlar yuklanmagani, dissertatsiya ishlari belgilangan tartibda olib borilmaganligi hamda yakka tartibdagi rejalarning bajarilmaganligi aniqlandi. Belgilab qo‘yilsinki, ushbu 172 nafar izlanuvchi va doktorantlarga 2025-yil 6-mayga qadar yakuniy monitoringda ishtirok etishi orqali o‘z ilmiy faoliyatini asoslab berish uchun so‘nggi imkoniyat berilsin. Shuningdek, monitoringda qatnashmagan yoki asosli sabablarsiz topshiriqlarni bajarmagan izlanuvchilar ilmiy izlanuvchilar safidan chiqarilsin.

4.3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi vakillari tomonidan kompleks tekshiruv, monitoring yakuniga ko‘ra o‘tkazilgan yig‘ilish talabiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarorida (https://lex.uz/docs/-3213410) 2-ilova bilan tasdiqlangan NIZOM talablariga (1-bob, 8-band) muvofiq belgilangan talab bajarilishi ta’kidlandi. Ya’ni, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi va Oliy attestatsiya komissiyasi vakillarining talabi ilmiy rahbarlik uchun belgilangan cheklovga rioya etish, talabni bajarmagan Ilmiy rahbarga nisbatan, cheklovdan o‘tish holatida, chora ko‘rish belgilanishi haqida ogohlantirilganligi ma’lum qilinadi. Shuni e’tiborga olgan holda Akademiyada barcha ilmiy izlanuvchilar (doktorant va mustaqil izlanuvchi) attestatsiyada sababsiz qatnashmagan va hujjatlar talab darajasida yuritilmaganlar, ularning ilmiy rahbarlariga nisbatan chora ko‘rish belgilanishi haqida ogohlantirilsinlar va chetlatish masalasi qo'yilsin.

4.4. Innovatsion rivojlanish vazirligiga ilmiy-amaliy loyihalar tanlovida qatnashish uchun Akademiyaning 8 ta loyihalari tavsiya etilsin (4-ilova).

4.5. Toshkent tibbiyot akademiyasida 20 yil davomida faoliyat olib borgan va hozirda marhum professor-o‘qituvchilar va xodimlarni xotirlash maqsadida TTA xodimlari

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: UZ58526684

(T.A.Bobomuratov, Q.Nizomov, G.T.Mirzaeva) tomonidan tayyorlangan "Unutilmaslar darsligi" nomli xotira kitobi tasdiqlansin va nashriyotda chop etilib kafedralarga hamda kitobga kiritilgan ustozlarning oilalariga (beg‘araz) tarqatilsin.

4.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son qarori bilan tasdiqlangan “2025-2027-yillarda Toshkent davlat tibbiyot universitetida kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo‘lga qo‘yish, ilmiy salohiyatni oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishlab chiqilgan bakalavriatura ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malakaviy amaliyot dasturlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-dekabrdagi 836-son “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2024-yil 14 oktabrdagi 381-son Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Oliy ta’lim tashkilotlarida antiplagiat dasturlarini joriy etish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasida 2025/2026 o‘quv yili uchun xarid qilingan AI detectori bor antiplag.uz antiplagiat dasturidan foydalanish yo'lga qo'yilsin.

4.8. Kafedralarning mahalliy va xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida har bir **kafedraga** qo‘shimcha topshiriqlar yuklatilsin. Jumladan:

- Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini baholovchi reytinglar (QS, Times Higher Education, va boshqalar) doirasida talab etiladigan o‘quv va ilmiy mahsulotlar soni va sifatini oshirish choralari ko‘rilishi ta’minlansin;

- Kafedralar akademik reputatsiya va ish beruvchilar o‘rtasidagi nufuz bo‘yicha ovoz yig‘ish jarayonlarida faol ishtirok etishlari ta’minlansin;

- Reytinga oid soha ekspertlari, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘tkaziladigan anketa va so‘rovnomalarda ishtirok etish ishlari uchun mas’ul xodimlar belgilansin va ularning tizimli faoliyati ta’minlansin.

Ushbu chora-tadbirlar akademiyaning, kelgusida universitetimizning xalqaro nufuzini yuksaltirish va global ta’lim majmuasiga integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, kafedralar bu yo‘nalishda aniq reja asosida ish olib borishlari ta’minlansin.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi.Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.**

**Rektor v.v.b** **Sh.A.Boymuradov**

*Ijrochi: G.A.Ismailova*
*Tel:+998 97 461 80 41*